

LIRIK QO'SHIQLARNING QISQACHA TASNIFI ALLA, MEHNAT VA MAROSIM QO'SHIQLARI TALQINIDA

Bobonazarova Sunbula Azamat qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU talabasi

Annotasiya: Inson umri davomida milliy marosim, qadriyatlarga yo'g'rilgan hayot tarzida yashab, milliy qo'shiqlar tinglar ekan. Uning ong-u tafakkuri ham oziqlanib, milliy ruh shakllanib boradi va bunday qalb egalari tabiatan hayotni sevuvchi, unga o'zgacha nigoh bilan boquvchi, nafaqat o'zi balki atrofdagi insonlarni ham yashashga undovchi insonlar bo'lib voyaga etishadi.

Kalit so'zlar: *Lirik qo'shiqlar, alla, mifologik qarashlar, pilla obrazi, mehnat qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, milliy ruh.*

Inson ulg'aygani sari undagi moddiy manbalar bilan bir qatorda ma'naviy boyligi ham ko'payib, shakllanib boradi. Biz tug'ilganimizdan toki vafot etgunga qadar, milliy qadriyatlar biz bilan yashaydi, ulg'ayadi, shakllanadi. Va hatto bizning vafotimizdan so'ng ham ular yashayveradi. Darhaqiqat, insonlarning hayvonlardan tildan tashqari farqli tomoni mana shu so'zlarda aks etadi. Chunki barcha manbalarda inson qadri ulug'lanadi, kuylanadi. Inson vafot etib, uning tani tuproq bilan singishib ketganda ham, uning nomi xotirlanadi. Albatta, aynan mana shu xotira marosimlari inson vafotidan so'ng o'tkaziladi. Demak, biz bu marosimlar orqali insonlarni nafaqat tirikligida, balki vafotidan so'ng ham ular nomini yodga olamiz. qilgan ishlarini aytib olqishlaymiz va keyingi avlodga namuna, o'rnak qilib ko'rsatamiz. Balki shuning uchun ham milliy ruh degan tushuncha yaralgandir. Bizning milliy ruhimiz, qadriyatlarimiz ham, asosan, mana shu marosimlar ya'ni (tug'ilish, ulg'ayish, vafot etish, xotirlash vahokazolar) orqali ajdodlardan avlodlarga o'tib kelmoqda.

Inson umri davomida milliy marosim, qadriyatlarga yo'g'rilgan hayot tarzida yashab, milliy qo'shiqlar tinglar ekan. Uning ong-u tafakkuri ham oziqlanib, milliy ruh shakllanib boradi va bunday qalb

egalari tabiatan hayotni sevuvchi, unga o'zgacha nigoh bilan boquvchi, nafaqat o'zi balki atrofdagi insonlarni ham yashashga undovchi insonlar bo'lib voyaga etishadi. Mana shunday milliy ruhimizni shakllantiruvchi qo'shiqlardan biri bu-alla.

Onalarimiz bolalariga alla aytish orqali go'daklari qalbiga vataniga bo'lgan mehr-muhabbatini va oila azolarining kichkintoyga bo'lgan mehr muhabbatini singdirib boradi. Bola moddiy jihatdan ona suti bilan oziqlansa. Manaviy jihatdan ona allasi orqali oziqlanadi. Kelajakda iymon etiqodi butun, vatanga, oilaga, onaga bo'lgan sodiqligi yuqori, irodali inson bo'lib voyaga etadi.

Qashqadaryo viloyati Koson tuman Quyi obron qishlog'ida yashovchi Meyliyeva Mastura ayamiz tillaridan aytilgan bir allani misol sifatida keltirmoqchiman:

Alla aytay jonim bolam,
Orom olgin alla.
Qaro ko'zing orom olsin,
Tillo bolam alla.
Beshiklari tillodan,
Alla bolam alla-yo.
Ranglari-ya jiloli,
Erka bolam alla-yo.

Alla aytay jonim bolam,
Tinchi bolam, tinchlik bolam.
Orom olgin jonim bolam,
Uxla qo'zim alla-yo.

Alp yigitning bolasi uxla bolam allayo.[1]

Men allaning, asosan, shu misralariga "Alla aytay jonim bolam, tinchi bolam, tinchlik bolam". Mana shu misrada bolaning naqadar go'zal jannatmakon tinch va totuv ollohning nazari tushgan hur vatanda orom olyotganligini ona o'z farzandiga faxr va iftixor bilan ishonch bilan singdiryapti. Ko'zining oq-u qorasi bilan suhbat qilyapti. Shu orqali o'z farzandiga vaziyatni, muhitni tanityapti. Mana shu oddiy o'ynoqi misralar orqali o'ta etuk salohiyatli onalarimiz borligini ko'rishimiz mumkin.

Hayotimizda marosim qo'shiqlaridan tashqari mehnat va lirik qo'shiqlar ham bor. Bunday qo'shiqlar asosan mehnat jarayonida dunyoga keladi va uzoq yillar yashaydi.

Misol uchun, Qashqadaryo viloyati Koson tumanida yashovchi Mirzaqulova Nigora opa tilidan aytilgan laparni keltirishimiz mumkin.

Osmonga chiqsang oy pari,
Oymomolar qo'llasin.
Suvga tushsang suv pari,
Sulaymonlar qo'llasin.
Paxta xirmon chosh bo'ldi,
Yeganimiz osh bo'ldi.
Ekkanim pilla bo'ldi,
Yiqqanim tilla boldi-yo,
Yiqqanim tilla bo'ldi.[2]

Xalq qo'shiqlaridagi ramzlarni tushunmasak, badiiy matnning poetik ma'nosini chaqolmaymiz.[3] Yuqoridagi laparimizda mifalogik qarashlar o'rin olgan bo'lib, insonlar va tabiatning butun bir borliqning bir-biri bilan ilohiy kuchlar orqali chambarchas bog'liqligini. Tabiat hodisalariga ularning tasiriga nisbatan insonlarning ham munosabatini ko'rishimiz mumkin. Keyingi misralarida esa ramziy obraz yani pilla obrazi orqali dehqon hosili barakali bo'lganini tasvirlamoqda va uni tilloga tenglashtirmoqda. Haqiqatda inson o'z mehnati orqali tillodanda ziyoda mehnatining hosiliga ega bo'ladi. Tarixan mehnat qo'shiqlari eneolet (yangi tosh) davriga to'g'ri keladi.[4]

Mehnat qo'shiqlaridan yana biri: Urchuq
G'uvva-g'uvva aylan urchig'im
Aylana aylan urchig'im
Paxta ipak ip qilibo
Charchama, charchama, urchig'im

Bu lapar orqali urchuq yigiruvchi o'z ishining unumli va jo'shqin ko'tarinki holatda tez va sifatli bajarishi uchun aytmoqda.

Ana endi lirik qo'shiqlardan yana Mastura aya tilidan aytilgan laparni misol keltiraman:

Baland tog' ustida kaklik uyasi

Bizni yomon deydi yorning onasi
Bizni yomon desalar yorning onasi
O‘zlariga nasib qilsin yaxshi bolasi

Bu lapar kelinlikka nomzod sifatida o‘z suygan yorini onasiga aytganda. Onasi undan norozi bo‘lgan va buni eshitgan qizning tilidan aytilgan. Bunday mavzudagi laparlarning bir emas, bir nechtasini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Oriq bo‘yini o‘ydim
Qo‘limga xino qo‘ydim
Ota-onamdan bezib
Yorimga bino qo‘ydim

Lirik qo‘shiqlar haqida umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak. Barcha lirik qo‘shiqlarimiz insonlarimiz qalbidagi quvonchli va qayg‘uli holatlarini ifoda etishga ko‘ngildagi g‘uborlarni aritishga xizmat qiladi va shu bilan bir qatorda insonga estetik zavq baxsh etadi.

Milliy qadriyatlarimiz ichida juda ko‘plab mano va mazmun, yuksak salohiyat, boy til va eng muhimi milliy ruhning ifodasini ko‘ramiz. ularni kuylash orqali his qilamiz va o‘z ongimiz, qalbimizda shakllantirib, keyingi kelajakka tuhfa qilamiz. Xulosa so‘ngida shuni aytmoqchimanki: inson yashab mehnat qilar ekan lirika ham inson bilan doim birlikda yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq og‘zaki ijodi.(Qashqadaryo viloyati Koson tuman Quyi obron qishlog‘ida yashovchi Meyliyeva Mastura ayamiz tillaridan)
2. Xalq og‘zaki ijodi.(Qashqadaryo viloyati Koson tumanida yashovchi
Mirzaqulova Nigora opa tilidan)
3. ”Yoshlik” jurnali, 2017-yil, 9-son.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mavsum_marosim_
5. Samandarova L.S. O‘zbek she‘riyatida folklor an‘analari, Ilm sarchashmalari, 2023. B. 57-61.

6. Ismailov G., Imomnazarova Sh. (2026). O‘zbek va Uyg‘ur xalqlarining mavsumiy marosim folklori / Filologiyada innovatsion tadqiqotlar jurnali. – Toshkent. – B. 17-27.

7. Mirzayevich, I. G. Phraseologisms as a Representation of Culture, History, Folklore: Central Asian Languages (on Material of Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages).

8. Kuchkarovich, K. U. (2025). The Practical Interpretation of Artistic Harmony in the Short Stories of Khayriddin Sulton. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 42, 243-245.

9. Kuchkarovich, K. (2024). The influence of eastern poetry on western poetry and the creation of Aligher Dante. *Current research journal of philological sciences Учредители: The USA Journals*, 5(11), 47-54.

10. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.

11 Azimboyevna, Y. S. (2026). Edgar Allan Poe va uning adabiy uslubining zamonaviy amerika ilmiy-fantastik adabiyotiga ta'siri. "Alfraganus" Xalqaro Ilmiy Jurnali, 3(6), 56-66.

12. Azimboyevna, Y. S. (2025). Literary Interpretation Of Motifs In Ray Bradbury's Works. *International Journal Of Advanced Research In Education, Technology And Management*, 4(3), 43-51.